

---

ELGA YARASHGAN EZGU AN'ANA

***"Obod yurt" shiori ostida o'tkazilayotgan xayriya hashari Navro'z umumxalq bayramiga munosib taraddud ko'rish, xalq orasida o'zaro mehr-oqibat, hamjihatlikni yanada kuchaytirish, hududlarni obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish, sanitariya holatini yaxshilash maqsadida amalga oshirilmoqda.***



---

Xayriya hashari Qo'shtepa tumani XTBga qarashli barcha maktablarda uyushqoqlik bilan olib borilib, ustoz-murabbiylar o'zlarining munosib hissalarini qo'shishmoqda. Ular tomonidan maktablarning maydoni, ko'cha qismi, ariqlari tozalanib, dov-daraxtlar butalib, oqlandi. Gul, mevali va manzarali daraxt ko'chatlari ekilib, bo'sh turgan joylarda yashil hududlar tashkil qilindi.



---

Xalqimizning boy tarixi, milliy o'zligimizni namoyon etuvchi hasharning tub zamirida ajdodlarimizning insoniylik, mehr-oqibat, o'zaro hamjihatlik, yurtga muhabbat, kabi ezgu fazilatlari mujassam. Bunday ishlar natijasida shahar va qishloqlarimiz tobora chiroy ochib borayotir. Bir so'z bilan aytganda, Navro'z bayrami arafasida o'tayotgan ushbu tadbir xalqimizni bunyodkorlik va obodonlashtirish zavqi bilan yashayotganini namoyish etmoqda.

### **Qo'shtepa tumani hokimligi Axborot xizmati**

2020-03-14 18:29:26